O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI YUQORI CHIRCHIQ TUMAN HOKIMINING

Q A R O R I

111900 Yangibozor qo‘rg‘oni, Mustaqillik ko‘chasi-78 uy

2022 - yil 11 - mart 106-10-145-Q/22 Yuqorichirchiq tuman hokimligi

Tuman hokimining 2022-yil 3-fevraldagi 31-10-145-Q/22–son qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmoni va 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmoni hamda 2022-yil 1-martdagi PQ-146-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagi Farmon va qarorga asosan tuman hokimligi boshqaruv apparatining tuzilmasida quyidagilar:

a) hokim o‘rinbosari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i lavozimi tugatilsin

b) Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi raisi bilan kelishilgan holda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan hokim o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i lavozimi joriy etilsin.

3. Tuman hokim o‘rinbosari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi

boshlig‘i majmuasining bosh mutaxassisi shtat birligi tuman hokim o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i majmuasining bosh mutaxassisi shtatiga o‘zgartirilsin.

4. Tuman hokimligi boshqaruv apparatining tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman hokimining 2020-yil 9-oktyabrdagi 431-son qarori va hamda 2022 yil 3-fevraldagi 31-10-145-Q/22–son qarorining 3-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Tastanbekov), Tashkiliy-kadrlar guruhi (N.Imamxodjaeva), tuman moliya bo‘limi (B.Ibragimov) besh kun muddatda tuman hokimligi boshqaruv apparati xodimlarining shtatlar jadvaliga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Tastanbekov hamda Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari N.Imamxodjaeva zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **U.Atemov**

Tuman hokimi **U.Atemov**